

GEOGRAFIYA

2009—2010-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfini tugatgan o'quvchilarning «Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi» fanidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat test sinovi o'tkaziladi.

Imtihon boshlanishidan oldin o'qituvchi o'quvchilar oldida muhrlangan konvertni ko'rsatadi va konvertni ochib, undagi berilgan topshiriqlarni stol ustiga qator qilib joylashtiradi.

Dastlab sinfga 5 nafar o'quvchi kiritiladi. Testda javobi yoziladigan nazariy savol berilgan. Har bir o'quvchi javobi yoziladigan testdan 15 tasini tanlab oladi va ulardagi savollarni varag'iga ko'chirib oladi va o'z javobini yozadi.

Bosqichli nazorat topshiriqlarini muvaffaqiyatli topshirish uchun o'quvchilar 5-sinf «Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi» fanidan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq egallashlari lozim.

Javobi yoziladigan test

1. Qaysi sayyoh o'z asarlarida Farg'ona vodiysi, Afg'oniston, Hindiston tabiati haqida ko'plab ma'lumotlar to'plagan?

Javob:

2. Okeanlar osti qanday qatlamlardan tashkil topgan?

Javob:

3. Torf mineral boyliklarining qaysi turiga kiradi?

Javob:

4. Havo bosimi qanchaga teng bo'lganda uni normal bosim deyiladi?

Javob:

5. 225° li azimut ufqning qaysi tomoniga to'g'ri keladi?

Javob:

6. Qo'shni daryolar havzalarini bir-biridan ajratib turuvchi chegaraga nima deyiladi?

Javob:

7. Qaysi sayyoh Janubi-g'arbiy Osiyo va Shimoli-sharqiy Afrikaga sayohat qilib, juda ko'plab ma'lumotlar to'plagan?

Javob:

8. O'rta Osiyo va unga yondosh yerlar xaritasini kim tuzgan?

Javob:

9. Yer yuzining eng baland tog' cho'qqisi qaysi?

Javob:

10. Yer yuzidagi eng katta pasttekislik qaysi?

Javob:

11. Havo harorati nima yordamida o'lchanadi?

Javob:

12. Yerning ichki tuzilishi nimalardan tashkil topgan?

Javob:

13. O'zan deb ataluvchi chuqurlikdan oqayotgan suv oqimi nima deb ataladi?

Javob: 14. Maktabga 315° azimut bilan borilgan bo'lsa, ortga qaysi yo'nalish bilan qaytiladi?

Javob:

15. Bosh daryo o'zining barcha irmoqlari bilan birga nimani hosil qiladi?

Javob:

16. Daryo o'z suvini biron joyga quysa, o'sha joy nima deb ataladi?

Javob:

17. Qaysi yoqilg'i botqoqliklarda o'simlik qoldiqlaridan hosil bo'ladi?

Javob:

18. Mashhur «Safarnoma» asari kim tomonidan yozilgan?

Javob:

19. Kompas ustiga gugurt cho'pi qo'yib, uning uchini 90° ga to'g'rilasak, gugurtning ikkinchi uchi qaysi yo'nalishni ko'rsatadi?

Javob:

20. Hozirgi kunda eng ko'p ishlatiladigan yoqilg'i turi qaysi?

Javob:

21. Qanday shamollar bir yilda o'z yo'nalishini ikki marta o'zgartiradi?

Javob:

22. Yer po'sti qanday qatlamlardan tashkil topgan?

Javob:

23. Dunyodagi eng maftunkor sharshara qaysi materikda joylashgan?

Javob:

24. Tarkibida bir qancha metallar bo'lgan rudalar qanday ataladi?

Javob:

25. Yerning eng dastlabki aniq o'lchovlarini bajargan olim kim?

Javob:

26. Mashhur «Devonu lug'otit turk» asarini kim yozgan?

Javob:

27. Moskvadan Pekinga bormoqchi bo'lgan yo'lovchilar qaysi tomonga yurishi kerak?

Javob:

28. Daraja to'ri qanday chiziqlardan hosil bo'ladi?

Javob:

29. Exolot yordamida nima aniqlanadi?

Javob:.....

30. Shamol deb nimaga aytiladi?

Javob:

31. Xitoyga dastlab qaysi yevropalik sayyoh borgan?

Javob:

32. O'rta Osiyo geografiasining asoschisi kim?

Javob:

33. Yer yuzidagi biror-bir nuqtaning boshqa nuqtadan tik balandligiga nima deb ataladi?

Javob:

34. Xaritada izotermalar yordamida nimalar tasvirlanadi?

Javob:

35. O'zbekistonga yog'inlarni qaysi shamollar keltiradi?

Javob:

36. Quyosh tizimida Yer nechanchi o'rinda turadi?

Javob:

37. Havo bosimi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq'larga nima deyiladi?
avob:

38. Suvning ko'tarilib qaytishi Quyosh tortishiga nisbatan Oy tortganda necha baravar kuchli bo'ladi?

Javob:

39. Nivelir asbobi yordamida nima aniqlanadi?

Javob:

40. Briz — bu nima?

Javob:

41. Qaysi sayyoh o'z sayohatida Hindistonga dengiz orqali borish yo'lini topish maqsadida Ispaniyadan G'arbga tomon suzib ketadi?

Javob:

42. Daryo suvida cho'kindi jinslarning cho'kish qonuniyatini birinchi bo'lib kim aniqlagan?

Javob:

43. Orol dengizi Toshkent shahriga nisbatan qaysi tomonda joylashgan?

Javob:

44. Harorati o'xshash nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq'larga nima deyiladi?

Javob:

45. Yupiter Quyosh tizimidagi nechanchi sayyora hisoblanadi?

Javob:

46. Mutlaq balandligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziq'lar nima deb ataladi?

Javob:

47. Quruqliklarning okean sathidan va okeanlar bilan tutashgan dengiz sathidan tik balandligiga nima deyiladi?

Javob:

48. Ufq tomonlariga qarab mo'ljallash nima deb ataladi?

Javob:

49. Ob-havoning muayyan joyga xos bo'lgan ko'p yillik rejimiga nima deyiladi?

Javob:

50. Yonbag'ir qiyaligi qanday belgi bilan ko'rsatiladi?

Javob:

51. Qaysi qatlamda bulutlar hosil bo'lib, eng ko'p yog'in keltiradi?

Javob:

52. Qaysi asbob yordamida bir-biriga yaqin turgan ikki predmet orasidagi masofa o'lchanadi?

Javob:

53. Shimol tomon bilan biror predmetga yo'nalgan chiziq oralig'idagi burchak nima deb ataladi?

Javob:

54. Eramizdan avvalgi II asrda dunyo xaritasini kim tuzgan?

Javob:

55. Eski oy ufqning qaysi tomonida ko'rinadi?

Javob:

56. Quyoshning qishki turish kuni qaysi sanaga to'g'ri keladi?

Javob:

57. Zond va Puerto-Riko botiqlari qaysi okeanlarga tegishli?

Javob:

58. Yer yuzida nechta asosiy mintaq bor? (Nomlarini yozing.)

Javob:

59. Bahorgi va kuzgi tengkunliklar qaysi sanaga to'g'ri keladi?

Javob:

60. Dunyoning birinchi xaritasi (eramizdan avvalgi III asrda) kim tomonidan tuzilgan?

Javob: